



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

DIPLOMATIYADA AYOLLARNING O’RNI VA ROLI:
IMKONIYATLAR, YUTUQLAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI

Mirzabekova Ruxsora Ilxam qizi
ruhsoramirzabekovna@gmail.com

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy diplomatiya sohasida ayollarning asosiy o’rni va roli haqida tahlil qilinadi. Zamonaviy diplomatiya tizimida gender yondashuv va tarixiy va hozirgi diplomatlar safidagi ayollarning ishtiroki, xalqaro siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga qo’shgan hissasi, shu bilan birgalikda, gender tengligi tamoyillari asosida yuzaga kelayotgan hozirgi yangi imkoniyatlar ko’rib chiqiladi. Undan tashqari, diplomat ayollar hozirda duch kelayotgan ma’lum bir to’siqlar, stereotiplar va muammolar yoritilib, ularni bartaraf etish yo’llari haqida fikrlar yuritiladi. Maqolada yorqin misol sifatida, tarixan O’zbekiston va dunyo tajribasida ayollarning diplomatik faoliyati misollar asosida tahlil qilinadi va ularning tinchlikni saqlash, muloqotni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi muhim o’rni ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: globallashuv davri, diplomatiya, gender tengsizlik, diplomat, United Nation Women, madaniy siyosat, kadrlar siyosati, protokol, xalqaro muloqot, Xalqaro siyosat, nohukumat tashkilotlar.

Annotation: This article analyzes the fundamental role and position of women in the field of modern diplomacy. It explores gender approaches in today’s diplomatic system, the participation of women among historical and current diplomats, and their contributions to international political and social processes. Additionally, it examines the new opportunities emerging based on the principles of gender equality. The article also addresses certain barriers, stereotypes, and



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

challenges that female diplomats currently face and discusses possible ways to overcome them. As a vivid example, the diplomatic experiences of women in Uzbekistan and around the world are analyzed, emphasizing their significant role in maintaining peace, fostering dialogue, and strengthening international cooperation.

Keywords: globalization era, diplomacy, gender inequality, diplomat, United Nations Women, human resources policy, cultural policy, protocol, international dialogue, international politics, non-governmental organizations.

Аннотация: В данной статье анализируется ключевая роль и значение женщин в современной дипломатии. Рассматриваются гендерный подход в современной дипломатической системе, участие женщин среди исторических и современных дипломатов, а также их вклад в международные политические и социальные процессы. Также исследуются новые возможности, возникающие на основе принципов гендерного равенства. Кроме того, освещаются определённые барьеры, стереотипы и проблемы, с которыми сталкиваются женщины-дипломаты, и предлагаются пути их преодоления. В качестве яркого примера анализируется дипломатическая деятельность женщин в истории Узбекистана и других стран, подчеркивая их важную роль в сохранении мира, развитии диалога и укреплении международного сотрудничества.

Ключевые слова: эпоха глобализации, дипломатия, гендерное неравенство, дипломат, ООН-женщины, кадровая политика, культурная политика, протокол, международный диалог, международная политика, неправительственные организации.

Hozirgi globallashuv jarayonida diplomatiya xalqaro aloqalarni rivojlantirishda asosiy rol o'ynab kelmoqda. Qadimdan bunday diplomatik



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

jarayonlarda asosan faol bo'lib, muhim qarorlarni faqat erkaklar qabul qilishgan bo'lsa, endilikda ayollarning o'rni tobora kundan-kun ortib bormoqda. Diplomat ayollar siyosiy jarayonlarda ham tinchlikni ta'minlash, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, hamda umumiy inson huquqlarini himoya qilish, madaniy aloqalarni mustahkamlash kabi sohalarda faol ishtirok etib, diplomatiya dunyosida o'z salohiyatini namoyon qilmoqdalar. Zamonaviy davrda ko'plab mamlakatlarda gender yondashuv asosida olib borilayotgan islohotlar tufayli ayollar tashqi siyosatni shakllantirishda bevosita faol ishtirok eta boshladilar. Ular vazir, elchi, xalqaro tashkilot rahbarlari kabi nufuzli lavozimlarini egallab, an'anaviy gender tengsizliklarni bartaraf etmoqda. Shu sababli, ayollar diplomat sifatida nafaqat o'z mamlakatlari, balki dunyodagi barcha xalqlar uchun muhim bo'lgan tinchlik, xavfsizlik va barqarorlik yo'lida xizmat qilyapti.

Tarixga nazar tashlasak, bilamizki, ayollar asosan norasmiy diplomatik missiyalar orqali ishtirok etgan. Masalan, XVI asr oxiri XVII asr boshlarida ham ayollar siyosiy aloqalarni boshqarishda faol bo'lgan. Biroq, ular rasmiy diplomatik unvonga ega bo'lishmagan. Bugungi kunda esa bu holatga yakun yasaldi va tubdan



o'zgardi. Yorqin misol tariqasida, BMTdagi yuqori lavozimlarga ega bo'lgan ayollar — Amina Mohammed (BMT Bosh kotibining o'rinbosari), Ursula von der Leyen (Yevropa Komissiyasi prezidenti), Sigrid Kaag (Niderlandiya tashqi



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

ishlar vaziri) kabi nomlarni keltirish mumkin. Ular xalqaro siyosatdagi muhim qarorlarning qabul qiluvchisi bo'lib, global diplomatik jarayonga yaxshigina ta'sir ko'rsatmoqdalar. Biroq, shunga qaramay, hali ham diplomatik tizimda gender tengligi to'liq ta'minlanmagan. Ko'plab mamlakatlarda ayollar vazir yoki elchi lavozimiga erkin tayinlanish huquqiga ega emaslar. UN (United Nation) Women tashkilotining 2023-yili ma'lumot berishicha, dunyo bo'yicha atigi 23% elchilarni ayollar tashkil etadi. Ko'plab ayollar hali hamon, gender tengsizligiga, ish va oilani bir maromda ushlab turish muammolari, siyosiy ishonchning yetishmasligi kabi to'siqlarga duch kelmoqda. 2014-yil holatiga ko'ra, 143 davlat Konstitutsiyalarida erkaklar va ayollar tengligini kafolatlagan, biroq, yana 52 mamlakat esa bu muhim majburiyatni hali ham qabul qilmagan. 1992-yildan to 2019-yilgacha bo'lgan davrda tinchlik jarayonlarida ayollar faqat 13 foizi muzokarachilar, 6 foizi vositachilar va 6 foizi imzo chekuvchilar sifatida ishtirok etgan. O'zbekistonda ham ayollarning diplomatik faoliyatda ishtiroki kundan kun ortib bormoqda. Bugungi kunda Tashqi ishlar vazirligida va boshqa xalqaro aloqalar bilan bog'liq idoralarda ayol mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Ular protokol, xalqaro muloqot, matbuot xizmati, madaniy diplomatiya va boshqa sohalarda muvaffaqiyatli ishlaymoqdalar. Misol tariqasida, hozirgi kunda O'zbekistonda Saida Mirziyoyeva ijtimoiy diplomatiya, madaniy aloqalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishlarida faoliyat yuritib kelmoqda, shu bilan birgalikda, O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, tarixda ham Dilorom Tashmuhamedova kabi ayollar parlament va xalqaro vakillik lavozimlarida faol ishtirok etganlar. Shu bilan birgalikda, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Gender tenglik strategiyasi doirasida ayollarning siyosiy va diplomatik lavozimlarga tayinlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. Bu strategiya esa O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash yo'lida muhim huquqiy asosi bo'lib



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

xizmat qilmoqda. O‘zbekiston tajribasi ayollar diplomatiyada faqatgina ishtirokchi emas, balki tinchlik, muloqot va xalqaro hamkorlikni mustahkamlovchi faol kuchga aylanmoqdaligini ko‘rsatadi.

BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasiga binoan, 2022-yilda 24-iyun har yili “Ayollar diplomatiyasi kuni” sifatida e‘lon qilindi. Barcha a‘zo davlatlar, BMT tashkilotlari, nohukumat tashkilotlar, akademik muassasalar va ayol diplomatlar uyushmalarini bu kunni mos deb hisoblagan shaklda nishonlashga taklif etildi. BMT Bosh kotibining o‘rinbosari Amina Mohammed shunday deydi: **“Ayollar stol atrofida bo‘lishi, ovozlari eshitilishi va hissasi qadrlanishi uchun bor kuchimizni sarflashimiz kerak.”**



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, bugungi zamonaviy dunyoda va ochiq muloqotlar davrida diplomatiya sohasi faqat erkaklar emas, balki ayollar uchun ham keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ayollar tinchlikni saqlash, ayollar va bolalar huquqini himoya qilishda, madaniy hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro muzokaralarda muhim rol o‘ynayapti. Shunga qaramay, an‘anaviy, tarixiy gender



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

tengsizlik va ijtimoiy to‘siqlar sababli ko‘plab ayollar diplomatik sohada to‘liq salohiyatini namoyon eta olmayaptilar. Ayollar ishtirokini kuchaytirish uchun gender tengligi tamoyillarini hayotga tatbiq etish, ta’lim, yetakchilik va kadrlar siyosatida tenglikni ta’minlash zarurdir. O‘zbekiston va boshqa davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayollar diplomatiyadagi ishtiroki nafaqat ijtimoiy adolat, balki global barqarorlik va taraqqiyot uchun ham zarur omildir. Shu bois, diplomatiyada ayollarning rolini yanada kengaytirish — nafaqat ularning huquqi, balki zamonaviy va samarali tashqi siyosatning ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO’YXATI:

1. Xalqaro diplomatiyada ayollarning o‘rni qanday? (2024). *O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA)*. 27-iyun, 2024-yil. Olingan: https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-diplomatiyada-ayollarning-orni-qanday_593239
2. United Nations. (n.d.). *International Day of Women in Diplomacy*. United Nations official observances. Olingan: <https://www.un.org/en/observances/women-in-diplomacy-day>
3. UN Women. (2024, 24-iyun). *International Day of Women in Diplomacy: Promoting equality through feminist foreign policy*. United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women (UN Women). Olingan: <https://eca.unwomen.org/en/stories/news/2024/06/international-day-of-women-in-diplomacy-promoting-equality-through-feminist-foreign-policy>
4. UN Women. (2022, sentabr). *Feminist Foreign Policies – Brief*. United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women. Olingan: <https://www.unwomen.org/en/digital-library/publications/2022/09/brief-feminist-foreign-policies>